



IQTISODIYOTNI TARTIBLASHDA BOZOR MEXANIZMI

Ostonoqulov Alisher¹

¹Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi tell: +998932222217

Humoyiddin Bahriddinovich Shokirov²

²Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 2I-2021-guruh 2-bosqich talabasi tell:+998999443853

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 20-yanvar 2023 yil

Nashr qilindi: 24-yanvar 2023 yil

KEY WORDS

iqtisodiyot, bozor mexanizmi, iqtisodiyotni tartiblash, makrodaraja, mikrodaraja.

ABSTRACT

Mazkur maqolada iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari, bozor iqtisodiyotining tartiblanishi, iqtisodiyotni tartiblashda davlatni roli va vazifalari, iqtisodiyotni tartiblash va uning zarurligi haqida batafsil bayon etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni tartibga solish, boshqarish, tartiblashtirish kabi tushunchalar asosan bir xil ma'noni bildiruvchi tushunchalar sifatida foydalaniladi. Darhaqiqat, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiyotni ikki darajada: makro va mikrodarajada o'rganadi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblash ham shu ikki darajada olib boriladi.

Mikrodarajada tartiblash deganda ma'lum bir korxona yoki firma faoliyatini tartibga solib, boshqarish tushuniladi. Makrodarajada tartiblash deganda esa ma'lum bir davlatning iqtisodiyotini tartibga solib boshqarib turish tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Iqtisodiyotni tartiblash — bu undagi turli bo'g'inlar faoliyati darajasining bir-biriga bog'lanish va mos tarzda o'sib borishdir. Har qanday davlat iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deb yuritiladi va bozor sharoitida unga, eng dastlab, yalpi talab bilan yalpi taklif bir-biriga xos bo'lishi kerak bo'ladi. Buning uchun ishlab chiqarish tarkibi ham ularga mos bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki usulidan foydalaniladi. 1. Iqtisodiyotning o'z-o'zini tartiblash — bozor mexanizmi usuli. 2. Davlat tomonidan tartibga solish. Lekin turli bosqichlarida ular o'rtasidagi nisbat turlicha bo'lgan. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi birgalikda amal qilgandagina ma'lum darajada barqarorlikni, muvozanatni bir me'yorda ta'minlab, iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Iqtisodiyotni o'z-o'zini tartiblanishning bozor mexanizmi bozor tartibga solish ta'siriga asoslanadi.

Natijalar:

Tartibga solishlar orasida narx asosan yetakchilik qiladi. Narx o'zgarishlarga xo'jalik faoliyatining moslashib borishi iqtisodiyotni tartiblab turadi. Bozor mexanizmi talab va taklif o'yiniga ularning mos bo'lishi yoki bo'lmasligiga asoslanadi va narx orqali amalga oshadi. Narx iqtisodiy xatti xarakatlarni o'zaro bog'lab talab va taklifni moslashtiradi iqtisodiy koordinator muvofiqlashtiruvchi vazifasini amalga oshiradi. Narx tartibga solish sifatida iste'molni ham

koordinatsiyalaydi. Narx ko'tarilganda xaridorlar harakati o'zgaradi, ular tavarlarni kam sotib oladirlr. Bozor iqtisodiyoti tavar ishlab chiqarishga asoslangan, bu tovar ishlab chiqarish o'z navbatida mehnat taqsimotiga tayanadi, bu ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashuviga olib keladi.

Muhokama:

1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik mamlakatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni majbur qildi.

Ixtisoslashuv bozorga moslashish uchun turli korxonalar vazifasiining koordinatsiyalashuvini taqazo qiladi va bu vazifani ham narx amalga oshiradi. Agar davlat narxga aralashib, uni muzlatsa, ya'ni uni ma'lum bir miqdordan ortiq bo'lishini cheklab qo'ysa, bozor muvozanati buzilib, taqchillik yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartiblash klassik modeli tajribada qattiq sinovlarga dosh berolmadi. Makroiqtisodiyot davlatning aralashuvchisiz muvaffaqiyatli ko'tarila olmasligi ayon bo'lib qoldi. Yangi makroiqtisodiy regulator kerak edi.

Xulosa: Makroiqtisodiyotni tartibga solishning tamomila yangi modeli yaratildi. Iqtisodiyotni mamlakat tarafidan tartibga solish – bu mamlakatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini ko'tarish uchun belgilangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Slogoda V.T. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari. Darslik. - M.: FORUM: INFRA-M. 2009.
2. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob: Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Sharq», 2003.
3. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: «Sharq», 2006.
4. Shodmonov Sh., G'ofurov U. va boshq. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. - T.: «Iqtisodiyot», 2010.
5. Shodmonov Sh., Jo'raev T., Alimov R.O'. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Moliya", 2002.